

BOSHLANG'ICH SINFLARGA GAPNING BOSH BO'LAKLARINI O'QITISH BO'YICHA SAMARALI METODLAR VA ULARNING TAHLILI

Abdurahimova Gulshoda Erkinboy qizi
Jizzax viloyati Baxmal tumani 33-maktab
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gapning bo'laklari, uning turlari, 3-sinf kitobining 2-qismida berilgan topshiriqlar va ularni bajarish haqida, yangicha metodlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: gapning bosh bo'laklari, ega, kesim

Tugal mazmun bildirar,.

So'ngida nuqta bo'lar. (Gap)

KIRISH

Avvalo gap bo'laklari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deb ataladi. Gap bo'laklarini aniqlashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqa hisoblanadi. So'zlarga so'roq berish, ularning aynan qaysi turkumga mansubligi, gap ichida so'zning joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi.

ASOSIY QISM

Gap bo'laklarining turlari odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Gap bo'laklarining gap tarkibidagi darajasi bir xil emas. Ba'zi gap bo'laklari gap qurilishida asosiy o'rinni egallaydi, bunday bo'laklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida asosiy rol o'ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo'laklar orqali fikr anglashilaveradi. Shunga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajratiladi:

- 1) Bosh bo'laklar,
- 2) Ikkinchi darajali bo'laklar.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi. Bosh bo'laklar 2 qismdan: ega va kesimdan iborat.

Ikkinchi darajali bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qilmaydi balki uni hajm jihatdan kengaytiradi yoki so'z birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan yoki o'zaro tobe aloqada bo'lib, ularni izohlash uchun, aniqlash uchun shuningdek to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi va holdir. Kesim orqali

izohlanadigan fikr predmetni anglatadigan, gapning boshqa bo‘laklariga tobe bo‘lmagan bosh bo‘lak ega. Eganing ostiga esa bitta to‘g‘ri chiziq chiziladi. Ega keng ma‘noda predmet tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan belgining kimga yoki nimaga qarashlilikini ko‘rsatadi. Ega bosh kelishikdagi birliklar bilan ifodalanib, kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Ega, odatda, yakka so‘z: ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan so‘z (sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravishdosh, ravish, taqlid so‘z, undov so‘z, modal so‘z) bilan belgilanadi.

Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydigan va u haqidagi hukmni bildiradigan bosh bo‘lak kesim deyiladi, ostiga ikkita to‘g‘ri chiziq chiziladi. Kesim o‘zida belgi (harakat, sifat va xususiyat) bilan predmetning zamon va maylda anglashiladigan o‘zaro munosabatini aks ettiradigan, gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan bosh bo‘lak hisoblanadi. Kesim qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra ikki turga ajratiladi: 1) fe‘l kesim; 2) ot kesim. Fe‘l kesim. Turli fe‘l shakllari bilan ifodalanadigan kesimga fe‘l kesim deb ataladi.

Fe‘l kesim ba‘zan frazeologik ibora bilan ham ifodalanadi: U uzoq davom etgan kasallikdan so‘ng ko‘z yumdi.

Ot kesim. Fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari ya‘ni ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va boshqalar bilan, shuningdek, fe‘lning harakat nomi shakli bilan ifodalanadigan kesimga ot kesim deb ataladi. Ot kesimga maqollardan ham misol keltirishimiz mumkin. Yaxshilik qilgan - do‘st, yomonlik qilgan - dushman. So‘zning ko‘rki - maqol.

3-sinf ona tili kitobining 2-qismini boshida aynan mana shu gap bo‘laklari bo‘yicha hikoyalar, she‘rlar va topshiriqlar berilgan. Masalan, 2-mashqda shunday topshiriq berilgan. Gaplarni o‘qing va mos so‘zlar bilan to‘ldiring.

1. Qushlar bahorda uzoq o‘lkalardan ...
2. Bolalar musiqa
3. ... kasallarni davolaydi.
4. Javlon musiqa to‘garagiga
5. Hozir texnologiya darsida ... javon yasashni o‘rganishyapti.
6. ... dala ishlarini boshladilar.

Foydalanish uchun quyidagi so‘zlar berilgan: asbobini chalishni o‘rganishdi, uchib keladi, shifokor, qatnashadi, o‘quvchilar, dehqonlar. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarni gapning bosh bo‘laklarini to‘g‘ri joylashtirib gap tuzishga o‘rgatish mumkin. Kitobda yana bir ajoyib she‘riy topshiriq berilgan. Unda: 8-mashq. She‘rni ifodali o‘qing. She‘r kimning nomidan yozilgan? She‘rni matn ko‘rinishida ifodalang. Tuzgan matningizdagi bosh bo‘laklarni aniqlab, tagiga chizish vazifasi berilgan.

Oyijonim har kuni

Xonamni poklaydilar.
Derazamni ham artib,
Ko'nglimni chog'laydilar
Men ham kichik yordamchi
Toza, yorug' uyimiz.
Bizlarni alqaydilar,
Duogo'yim - buvimiz.

Masalan: Oyijonim xonamni har kuni poklaydilar - Oyijonim mening xonamni har kuni poklaydilar. Ega-oyijonim, kesim-poklaydilar. Oyijonim so'zining ostiga bir chiziq, poklaydilar so'zining tagiga ikki chiziq chizing. Poklaydilar so'zining o'rniga yana qanday so'zlardan foydalansa bo'ladi?

Bu mashq bolajonlarni she'rlarni ifodali holatda o'qishga o'rgatishidan tashqari, ularga tahlil qilish, bir so'zni o'rniga boshqa so'zlarni qo'llashni o'rganishlariga ham yordam beradi.

9-mashqda esa jadvaldagi so'zlardan gaplar tuzish, bosh bo'laklarni ajratib, tagiga tegishli chiziq chizish vazifasi berilgan. Masalan: O'quvchilar bayon yozdilar.

Kim?	Nima qiladi?	Nima?
O'quvchilar	Yozdilar	Bayon
Dizayner	Chizadi	Chizma
Xaridor	Sotib oladi	Kiyim
Sotuvchi	Sotadi	Mahsulot
Novvoy	Yopadi	Non

Shuningdek kitobni keyingi sahifalarida gapda eganing qo'llanilishi bo'yicha ham alohida mashq va topshiriqlar berilgan. Masalan, 15-mashqda gap berilgan bo'lib ularni egasini topish vazifasi berilgan.

1. Do'st boshga kulfat tushganda yordam beradi.
2. Mehnat kishini ulug'laydi.
3. Anvar ingliz tilini o'rganyapti.
4. Men kelajakda o'qituvchi bo'lishni xohlayman.
5. Karim hisob-kitobni yaxshi uddalaydi.

Gapda kesimning qo'llanilishi bo'yicha ham alohida metodlar yordamida bajariladigan mashqlar keltirilgan. Masalan, 18-mashqda "Tabiat" so'ziga sinkveyn tuzish topshirig'i berilgan. Unga ko'ra:

1. Nima? Tabiat
2. Qanday? _____
3. Nima qildi? _____
4. Gap. _____
5. Ma'nodosh so'z toping. _____, _____, _____.

Bu topshiriq orqali bolalar to'g'ri gap tuzish yo'llarini, bir so'zni qayta-qayta takrorlamasdan o'rniga boshqa ma'nodosh so'zlarni qo'llashni o'rganishadi. Men o'ylashimcha gapning bosh bo'laklari bo'yicha yana bir qancha metodlarni qo'llash mumkin. Masalan, "Kim ko'p so'z tuzadi?" metodini ham qo'llash mumkin. Bunda kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yozib qo'yiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirok etgan so'z tuzadilar. Bu o'yin kompyuter dasturiga ham kiritilishi mumkin. Bu metodni o'quvchilarni ikki yoki uch guruhga bo'lgan holda ham amalga oshirsa bo'ladi ya'ni qaysi jamoa ko'p va to'g'ri so'zlarni topadi shaklida. Masalan, kartochkaga namuna sifatida T Q N O A B L K I U. Ushbu harflar yordamida so'zlar yasashlari kerak bo'ladi.

Yana "O'z uyalariga joyla" metodi ham bor. Buni ham barcha fanlarda, darslarda, mavzularda qo'llash mumkin. Masalan 5 ta so'z berilgan bo'lsin. Shularni ega va kesimga ya'ni ikki ustunga joylashtirib chiqish kerak bo'ladi

XULOSA

Demak xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, gap tuzish uchun asos bo'ladigan biror tushuncha kerak. Gapda butun bo'laklar ana shu asosiy tushunchani ifodalash uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki biror vosita orqali predmet tasavvuridagi so'zga yoki birikmaga bog'lanadi. Shuning uchun ham u bosh bo'lak tarzida o'qiladi. Bu xususiyat uning shaklida ham ko'rinadi: bunday xokim tushuncha bosh kelishik shaklida bo'ladi. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, ega gapda fikr ifodalanishiga asos bo'lgan bosh kelishikdagi xokim qismidir. Gapning bo'laklari yuqorida aytganimizdek bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat. Faqat bosh bo'laklar haqida ma'lumotlar berildi. Gapning bosh bo'laklari ya'ni ega va kesimni ko'rib o'tilgandan tashqari yana bir qancha usullar yordamida ham o'rgatish va darslarda qo'llash mumkin. Bu kabi ta'limiy o'yinlar, metodlarni yana bir qancha turlarini misol keltirishimiz mumkin. Muhimi bularni dars jarayonida ustozlar, yanada bolalar uchun qiziq holda tashkil qilishsa har qancha qiyin mavzu bo'lmasin bolalar tez va oson holatda bu mavzuni o'rganib olishadi. Bilamizki boshlang'ich sinfdagi bolalar hali kichik bo'lganliklari sababli ko'p ustozni dars o'tishidan yoki yozishlardan tez zerikib qolishadi. Ammo dars jarayonida yuqoridagi kabi o'yinlar ustozlari tomonidan tashkil qilinsa bolajonlarni maktabga, o'qishga, darsga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.G‘ulomova. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2021.
2. G‘.Ernazarov. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent2012.
3. G‘.Hamroyev. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. Toshkent-2018
4. D.Baynazarova. 3-sinf II qism ona tili. Toshkent-2023.
5. G.Mamatova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. Toshkent-2010.